



Prognozlashtirish va
makroiqtisodiy
tadqiqotlar instituti

Aeroportlarni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikni faollashtirish yo'llari

**Logistika infratuzilmasini
rivojlantirish va raqamli
iqtisodiyotni shakllantirish
loyihasi**


Tayyorladi:
A. Abdumuminov

Loyiha rahbari:
A. Kostyuchenko

Kirish

Aeroportlar mintaqaviy, milliy va xalqaro bozorlarga kirishni ta'minlaydi. Aeroport infratuzilmasining samarali ishlashi nafaqat sanoat, balki butun mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun ham muhimdir.

Ko'pgina mamlakatlarda xususiy sektorning infratuzilma obyektlari faoliyatidagi ishtiroki davlat-xususiy sheriklik (DXSh) orqali ortib bormoqda. Xususiy sektorning rolini oshirish bir qancha afzallikkarga ega. Birinchidan, xususiy sektorning ishtiroki keng ko'lamli infratuzilma dasturlarini **samarali amalga oshirishda** yordam beradi. Ikkinchidan, xususiy sektorning loyihada ko'zda tutilgan barcha bosqichlarda faol ishtirok etishi loyihaning **narx va sifat jihatdan mutanosibligini** ta'minlaydi.¹



1- rasm. Mintaqalar bo'yicha aeroport sektorlariga kiritilgan investitsiyalar, 2012-2021 yillar.

Manba: Jahon bankining 2021-yilgi "Infratuzilma obyektlarida xususiy sektor ishtiroki" yillik hisoboti.

2021-yilda aeroport infratuzilmasiga investitsiyalar kiritish hajmi bo'yicha Yevropa va Markaziy Osiyo, shuningdek, Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlari (mos ravishda **9,6 milliard AQSh dollarri** va **6,5 milliard AQSh dollarri**) peshqadamlik qilgan. Undan keyin o'rinni Janubiy Osiyo (**4 milliard AQSh dollarri**) egallagan.

2020-yilda xalqaro transport qatnovlarining qisqarishi tufayli aeroportlarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi keskin kamaydi va ishlab chiqilayotgan bir

¹ IATA Guidance Booklet: Airport Ownership and Regulation, IATA 2018, https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/xe/Documents/finance/me_iata-guidance_booklet_June2018.pdf

nechta loyiha qoldirildi. 2021-yilning ikkinchi yarmida ko'rsatkichlar tiklana boshladi, biroq COVID tufayli yuzaga kelgan moliyaviy taqchillik sabab ko'plab mamlakatlarda aeroportlarni rivojlantirishga sarmoya kiritishda xususiy sektorning roli orta boshladi (1-rasm).²

Xususiy sektorni jalg qilishning nazariy asoslari

Aeroportlarga xususiy sektorni jalg qilishning **bir nechta modeli** mavjud:

1. To'liq xususiylashtirish – aeroport aktivlariga egalik huquqini davlat korporatsiyasidan xususiy investorlarga aksiyalarni joylashtirish yoki savdo kelishuvi orqali o'tkazishni nazarda tutadi. Xususiylashtirilganidan so'ng, xaridor tashkilot aeroport obyektlarining ishlashi uchun to'liq javobgar bo'ladi. To'liq xususiylashtirish modelining nisbatan kam ommalashuvi asosan ikki omilga bog'liq: **birinchidan**, hukumatlarning strategik muhim ahamiyatga ega aktivlar ustidan nazoratni qo'ldan chiqarishni istamasligi, **ikkinchidan**, qisqa va uzoq muddatli manfaatlar muvozanatini ta'minlovchi tegishli iqtisodiy tartibga solish tizimining yo'qligi.

2. Konsessiya bitimi – xususiy operator infratuzilmaga ma'lum miqdorda investitsiya kiritish majburiyatini oladi va keyinchalik o'z xarajatlarini aeroport foydalanuvchilaridan olinadigan turli to'lovlar hisobiga qoplaydi. Xususiy sektorni aeroportlarga jalg qilishning joriy yoki rejallashtirilgan holatlari asosan konsessiya bitimi bilan bog'liq. Investor odatda 25-30 yillik konsessiya muddati davomida loyihalarни moliyalashtirish va aeroportni boshqarish uchun javobgar.

3. Boshqaruv shartnomalari – boshqaruv shartnomasi modeliga muvofiq, xususiy pudratchi aeroport aktivlarini, odatda yo'lovchi terminali yoki yo'lovchi terminallaridagi chakana savdo obyektlarini boshqarish uchun jalg qilinadi. Aeroportning boshqa operatsion faoliyati, masalan, uchish-qo'nish yo'laklari va havo harakatini boshqarish obyektlariga texnik xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish aeroport egasi yoki boshqa davlat idoralari nazorati ostida qoladi.³

Xorijiy tajriba

Hozirgi kunda dunyoda xususiy korxonalarining tabiiy monopoliyalarning infratuzilma aktivlariga egalik qilish va ulardan foydalanishi bo'yicha boy tajriba to'plangan.⁴

Abidjandagi Xofoe-Buanyi aeroporti, Kot-d'Ivuar. Xofoe-Buanyi (AERIA) aeroportidan foydalanish va uni rivojlantirish uchun javobgarlik 1996-yil iyul oyida

² Private Participation in Infrastructure (PPI) Annual Report Acknowledgement & Disclaimer, World Bank 2021, <https://ppi.worldbank.org/content/dam/PPI/documents/PPI-2021-Annual-Report.pdf>

³ Developing best practices for promoting private sector investment in infrastructure, Airports and air traffic control, ADB 2014, <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/27907/airports.pdf>

⁴ PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP LEGAL RESOURCE CENTER, Public-Private Partnerships in Airports, World Bank 2022, <https://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/sector/transportation/airports>

Kot-d'lvaar hukumati va AERIA o'rtasida imzolangan **15 yillik konsessiya shartnomasi** doirasida berilgan. AERIA investitsiyalarni aeroport foydalanuvchilarining to'lovlarini va aeroportning boshqa daromadlari orqali moliyalashtiradi hamda hukumatga konsessiya to'lovlarini amalga oshiradi. Konsessioner boshqaruvi ostida **yo'lovchilar oqimi ikki baravar ko'payib**, yiliga 2 million yo'lovchidan oshdi (2010-2019 yillar oralig'ida). Yo'lovchi terminali **11000 m²** dan **23000 m²** gacha kengaytirildi. Aeroportning uzoq muddat barqaror rivojlanishini ta'minlash va yanada o'sishni ta'minlash uchun uchish-qo'nish yo'lagi va yo'lovchi terminali kabi asosiy inshootlar va infratuzilmalar yaxshilandi. 2019-yilda aeroport "**ACI Airport Service Quality**" mukofotini Afrika qit'asidagi "**Eng yaxshilangan**" yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish tajribasi nominatsiyasida qo'lga kiritdi (u ro'yxatdan o'tishdan parvozgacha bo'lgan 37 ta asosiy ko'rsatkichni ko'rib chiqadi va baholaydi).⁵

Santyago Aeroporti, Chili. Ushbu aeroport 2015-yil fevral oyida Groupe ADP (45%), "Vinchi Airports" (40%) va "Astaldi Concessioni" (15%) ni o'z ichiga olgan "**Nuevo Pudahuel**" kompaniyasi tomonidan imzolangan 20 yillik konsessiya asosida faoliyat yuritadi. Shartnoma Chili infratuzilmasiga konsessiya ko'rinishida kiritilgan tarixdagi eng yirik 990 million dollarlik sarmoyadir. 248 400 m² maydonga ega yangi terminalning ishga tushirilishi Santyago aeroportini Janubiy Amerikadagi eng zamonaviy xalqaro markazga aylantirmoqda. Hozir mavjud terminalning kengayishi aeroportning yillik sig'imini **ikki baravarga** oshirmoqda (**16 milliondan 38 million yo'lovchiga**). Ishlar besh yildan kamroq vaqt ichida Vinchi Construction Grands Projets va Astaldi kompaniyalari tomonidan amalga oshirildi. Shlyuzlar soni **18** tadan **67 taga**, qo'nish yo'laklari soni esa **31** tadan **76 tagacha** oshdi.⁶

Bogotadagi "El Dorado" xalqaro aeroporti, Kolumbiya. Bogotadagi "El Dorado" xalqaro aeroporti loyihasida konsessioner "Compania de Desarollo Aeropuerto El Dorado" SA (CODAD) 20 yillik konsessiya muddati davomida yangi uchish-qo'nish yo'lagi va taksi yo'llarini quradi va saqlaydi. Kompaniya aeroportga qo'nish to'lovlaridan tushgan daromaddan mukofot ko'rinishida daromad oladi. Aeroportdagи yo'lovchilar terminali faoliyati Kolumbiyadagi aeroportlarni boshqarish uchun mas'ul bo'lgan Davlat agentligi "Aeronautica Civil" (Aerocivil) zimmasida qoladi. ⁷ 2007-yilda "El Dorado" xalqaro aeroporti konsessiya shartnomasi bo'yicha topshirilganidan so'ng, yo'lovchilarni tashish **235%** ga oshdi.

⁵ "Abidjan Airport Concession." Egis, egisaviation.hotboxstudios.net/projects/abidjan-airport-concession/

⁶ "Inauguration of the New International Terminal at Santiago Airport in Chile." En.newsroom.vinci-Concessions.com, <https://en.newsroom.vinci-concessions.com/news/inauguration-of-the-new-international-terminal-at-santiago-airport-in-chile-3b7e-55ff8.html>

⁷ Developing best practices for promoting private sector investment in infrastructure, Airports and air traffic control, ADB 2014, <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/27907/airports.pdf>

Xususan, 2003-yilda bu ko'rsatkich yiliga 7 million yo'lovchini tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilga kelib **25 millionga yetdi**.⁸

“Uzbekistan Airports” AJda DXSh istiqbollari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Asosiy maqsad aeroportning odamlar uchun qulayligi bo'lishi kerak. Xizmat ko'rsatish arzon, sifatli va tezkor bo'lishi uchun "aqlli" texnologiyalardan foydalanish zarur”.⁹

Ta'kidlash joizki, 2022-yilda Samarqand aeroporti xususiy kompaniya – Air Marakanda xorijiy korxonasi boshqaruviga berildi. Samarqand aeroportini rekonstruksiya qilish loyihasi “Uzbekistan Airports” va “Air Marakanda” tomonidan amalga oshirildi. Ushbu kompaniya yo'lovchilar, terminallar, samolyotlar va yerdan turib texnik xizmat ko'rsatish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Investor aerodrom infratuzilmasini modernizatsiya qilish va samolyotlar uchun to'xtash joylari sonini 4 tadan **29** tagacha oshirish uchun **80 million AQSh dollar** miqdorida sarmoya kiritdi.¹⁰

Xususiy sektorni jalb qilish uchun mos modelni tanlash muayyan aeroportlarning xususiyatlari, bozor sharoiti, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muhitga bog'liq. O'zbekiston misolida yuqoridagi uchta modeldan eng maqbولي **konsessiya shartnomasi** hisoblanadi.

Birinchidan, xususiy sektorni konsessiya shartnomasi shaklida jalb qilish sohaga **qo'shimcha moliyaviy malag'larni** olib keladi. Yirik loyihamalar uchun xususiy moliyalashtirishning yangi manbalari shakllanishi, ayniqsa hukumat tomonidan investitsiyalar hajmi cheklangan bo'lsa, alohida ahamiyatga ega. Ya'ni, konsessiya shartnomasini amalga oshirish yangi aeroportlar qurish yoki qo'nish yo'laklarini kengaytirish ishlarini davlat investitsiyalarisiz, xususiy sektor mablag'lari hisobidan bajarish imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, moliyalashtirish manbalarini shakllantirishda, to'liq xususiylashtirish modelidan farqli o'laroq, milliy **strategik aktivlar ustidan nazorat yo'qolmaydi**. Bu aeroportning jamoat manfaati uchun ishlashini rag'batlantiradi, xizmat narxini pasaytiradi va taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshiradi.

⁸ “Colombia’s Growing Airport Concessions.” ITS International, [ww.itsinternational.com/news/colombias-growing-airport-concessions](http://www.itsinternational.com/news/colombias-growing-airport-concessions)

⁹ Президент ознакомился с ходом строительных работ в международном аэропорту Самарканда, Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан 2022, <https://president.uz/ru/lists/view/4287>

¹⁰ Аэропорт Самарканда передали в управление частной компании, Новости Узбекистана 2022, <https://nuz.uz/sobytiya/1250112-aeroport-samarkanda-peredali-v-upravlenie-chastnoj-kompanii.html>